

5-dars

Darsning mavzusi: Yonma-yon kelgan unli va undosh harflar

Darsning ta'limi maqsadi: nutqiy matn qismlarini o'zaro bog'lash, rasmga qarab hikoya tuza olish; undosh va unli harflar yonma-yon kelgan so'zlar imlosi ustida ishlash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda davlat ramzlariga hurmat, vatanparvarlik hissini shakllantirish, tarixiy obidalar, mamlakatimiz boyliklari, ularni asrash bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilish; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; davlat ramzlariga nisbatan hurmat va iftixon hissini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, "**To'g'ri yoki noto'g'ri!**" ta'limi o'yini.

Darsning jihizi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, texnika vositalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

Uy vazifasini tekshirish. Uyga berilgan vazifa o'quvchilardan so'raladi. To'g'ri va husnixat bilan bajargan o'quvchilarning mehnatlari inobatga olinadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Mavzu taqdimot yordamida tushuntirib beriladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

25-mashq “To‘g‘ro/Noto‘g‘ri” o‘yini orqali bajariladi. Bunda o‘quvchilar “Marvarid” hikoyasidan olingan gaplarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini topadilar. Savollarga javob beradilar.

Fikrlar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
U okean sohilida farzandlari bilan birga o‘ynab yurgan Josh edi.		
Ruben do‘smini uchratganidan juda baxtiyor bo‘ldi.		
„Men yetaricha dunyo kezdim, yetaricha boylik orttirdim“, – dedi Josh.		
„Bir zamonalr menga qilgan saxiyliging evaziga men ham senga bir hadya qilsam deyman“, – dedi Ruben.		

Shundan so‘ng matn o‘qilib, mazmuni haqida suhbatlashiladi va quyidagi savollarga og‘zaki javob beriladi.

1. Matnda berilgan so‘zlar orasidan bir harf yonma-yon kelgan so‘zarni toping.

2. Ular nima uchun yonma-yon yozilgan?

26-mashq yozma bajariladi. Yonma-yon kelgan bir xil undoshli so‘zlar ustunlarga ajratilib yoziladi.

28-mashqda tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib, so‘zlarni ko‘chirish topshirig‘i berilgan.

Tanaffus, millioner, mahalla, quvvat, pilla, issiq, sakkiz, musaffo, parrak, jizza, chaqqon, to‘qqiz, sayyora, hassa, zarra.

29-mashqda taqdim etilgan matn o‘quvchilar bilan birga o‘qilib, muhokama qilinadi. Matnda uchragan yonma-yon kelgan bir xil undoshli so‘zlar ko‘chirib yoziladi.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunidao‘quvchilar joriy darsdao‘zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So‘ngra dars davomida faol qatnashgano‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

30-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta’kidlanadi.